

15. Маджидова Р. У. (2008). Антропоцентрические пословицы: семантика и лингвостатистика (на материале узбекского и русского языков): Дисс. канд. филол. наук. Ташкент.
16. Мусорин А. Ю. (2004). Фразеология как раздел языкоznания. Основы науки о языке, 1.
17. Розина Р. И. (1991). Человек и личность в языке. Москва.
18. Умарходжаев, М. И. (1983). Основы фразеографии. Ташкент.
19. Федоров, А. В. (2002). Основы общей теории перевода (Лингвистические проблемы): Для инст. и факул. иностр. яз. Учеб. пособие. – 5-е изд. Москва.
20. Шанский Н. М. (1969). Фразеология современного русского языка. Москва: ВШ.
21. Эмирова А. М. (1988). Русская фразеология в коммуникативном аспекте. Ташкент: Фан.
22. Vrbink A., Vrbink M. (2014). Phraseological units onomastic components: The case of English and Slovene. Revista de Linguistica Teorica y Aplicada Concepcion, 52(1), 135-136.

NOFILOLOGIK TA'LIM YO'NALISHIDA INGLIZ TILINI O'QITISHDA AUTENTIK MATNLARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLA ShTIRISH

*Shoxida MATYOKUBOVA
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
2-kurs tayanch doktaranti*

Annotatsiya: Ushbu maqola nofilologik ta'lif yo'naliishi ingliz tili darslarida autentik matnlarni qo'llashning samaralari va autentik matnlardan foydalanishni rivojlantirishga bag'ishlangan. Autentik materiallar nafaqat til o'r ganishni rivojlantiradi, balki o'r ganuvchining har sohadan dunyoqarashini oshirishda muhim omil bo'la oladi. Bundan tashqari haqiqiy matnlardan foydalanishning ahamiyati va zarurligini ularning chet tillarini o'rgatishdagi rolini aniqlashga harakat qildik. Nofilologik ta'lif yo'naliishida ingliz tili darslarida haqiqiy matnlarning qo'llanilishining avzalliklari va qulayliklarini qisqacha o'r ganildi.

Kalit so'zlar: autentik, nofilologik, madaniyatlararo, kompetensiya, idrok, kommunikativlik.

Chet tillarni o'qitishda so'z yoki lug'at tanlash ma'lum bir mavzu doirasi bilan cheklanib qolmoqda. Kontekst ma'noni yaratishda muhim rol o'ynaydi. Chet tillari pedagogikasi tilni kontekstda o'rgatish zarurligini targ'ib qiladi, garchi o'qituvchilar tilni

uning ijtimoiy konteksti bilan qanday bog’lashlari har doim ham aniq bo‘lmaseda. Haqiqiy matnlar (autentik matnlar) o‘quvchilarga nafaqat muloqot qobiliyatlarini, balki ularning madaniy kompetentsiyalarini yaxshilashga yordam beruvchi pedagogik bo‘lmagan matnlardir.¹⁷⁷ Haqiqiy materiallarni ham realia sifatida tanilgan, til tashuvchilar uchun yaratilgan barcha narsa deb ta’riflash mumkin. Til chegaralarining o‘zgarishi bilan, haqiqiy matnning ta’rifi hozir keng tarqalmoqda ya’ni g’oyalar, so‘zlar, iboralar va iboralarni o‘z ichiga oluvchi haqiqiy hayotiy vaziyatlarda eshitiladigan va o‘qilgan manba sifatida. So‘ngi yillarda chet tillarini o‘qitish metodikasida autentlik masalasiga katta e’tibor berilmoqda.

Nolingistik yo‘nalish fakultetlari, oliy o‘quv yurtlarida chet tilini o‘qitish jarayonini takomillashtirishning eng samarali va qulay usullari qatorida biz talabalarni tabiiy chet tilidagi madaniy muhitga yaqinlashtiradigan haqiqiy vositalarni ya’ni autentik matnlar orqali o‘qitishning avzalliklari va qulayliklarini ajratib ko‘rsatamiz. Autentik matnlar nima degani va uning ta’limda qo‘llanilishni boshlanish tarixi haqida va bir qator olimlarning fikrlaridan quyida bat afsil ma’lumotlar beramiz. “Authentic” so‘zi ingliz tilidan tarjima qilinganda “haqiqiy” degan ma’noni anglatadi. Ushbu termin ko‘pincha dars jarayonidagi matnlarni tavsiflash uchun ishlatiladi. Biroq autentik matnlar dastlab ta’limiy maqsadlar uchun mo‘ljallanilmagan.

Chet tilini o‘rganishda autentik materiallardan foydalanish uzoq tarixga ega. Autentik matn va materiallarning ta’limga xususan chet tillarni o‘qitishga kirib kelishi haqida fikr va tajribalar o‘tqazgan bir qator olimlarning nazariy qarashlarini ko‘rib chiqamiz. Misol uchun, ilk tilshunos olimlardan xisoblanadigan Genri Swit ushbu matnlarni chuqur taxlil qilgan va o‘n to‘qqizinchasi asrnining oxirlarida ko‘pgina ma’lumotlar keltirgan. U o‘z kitoblarida haqiqiy matnlardan muntazam foydalangan va ularning uydirma materiallarga nisbatan potentsial afzalliklarini yaxshi bilgan: Tabiiy, idiomatik matnlarning sun’iy “usullar” yoki “ketma-ketlik” dan katta afzalligi shundaki, ular tilning har bir xususiyatigaadolatli munosabatda bo‘lishadi. Sun’iy

¹⁷⁷ Floors F. Developing English for general academic purposes (EGAP) course in an Indonesian university // K@ta, 2008. V.10(1) P. 53-62.

tizimlar esa, ba’zi grammatik konstruktsiyalarning tinimsiz takrorlanishiga olib keladi. Lug’atning ba’zi elementlari, so‘zlarining ma’lum birikmalari boshqalarni deyarli butunlay chiqarib tashlaydi, ular teng yoki ehtimol undan ham muhimroqdir.

Autentik matnlar atamasi dastlab ta’lim maqsadida taylorlanmagan, lekin asosan ona tilida so‘zlashuvchilar uchun mo‘ljallangan materiallarga ishora qiladi va ularning mualliflari ham ona tilida so‘zlashuvchilar hisoblanadi. Ilk keltirilgan ta’riflardan biri Morrow (1977) tomonidan berilgan: “haqiqiy matn haqiqiy tilning bir qismidir, haqiqiy ma’ruzachi yoki yozuvchi tomonidan haqiqiy auditoriya uchun ishlab chiqarilgan va qandaydir haqiqiy xabarni etkazish uchun mo‘ljallangan”.

Autentik matnlarning yuqori axborot ma’lumotlari mavhum fikrlashni rivojlanishga va va ishonchni shakllantirishga yordam beradi. Aynan nofilologik ta’lim yo‘nalishi talabalarga matnning asosiy maqsadini tushunish, ma’lumotlarni analiz qilish, tahlil qilish va o‘z fikrlarini shakllantirishga yordam beradi. Bu esa talabalarning ishonchli va mustaqil fikrlashlarini rivojlanishga yordam beradi. Autentik materiallar til o‘rganish jarayonini ma’noli va samarali qiladi, chunki ular talabalarga real hayotda qulayliklar taqdim etadi va ularga o‘z fikrlarini ifodalash va maslahat berishlari uchun imkoniyat beradi. Autentik matnlarni ingliz tili darslarida qo’llash o’zining samarasini ko’rsatmoqda. Ayniqsa, yo‘nalishlari xorijiy til bo’lмаган talabalar autentik matnlar orqali nafaqat til o‘rganish imkoniga, balki tili o‘rganilayotgan davlatning madaniyati, e’tiqodi va an-analarini ham yuqori qiziqish bilan o‘rganishadi. Va bu albatta bu kabi haqiqiy matnlarni darslarda qo’llashni takomillashtirishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Jalolov J.J Chet tili o’qitish metodikasi: Chet tillar oliy o’quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. O‘qituvchi 1996.
2. Sattorov T.Q Bo’lajak chet tili o’qituvchisining uslubiy omilkorligini shakllantirish texnologiyasi. TDYUI 2003.
3. D. Tojiboyeva, A. Yo’ldoshev. Maxsus fanlarni moqitish metodikasi. 2009.
4. Jalilov J. Chet tili o’qitish metodikasi, Toshkent .2012
5. Joraboyev, B. B. O. (2021). Using Authentic Materials on English Lessons. Academic Research in Educational Sciences, 2, 1018.

6. Berardo, S.A (2006). The use of authentic materials in the teaching of reading
7. Gebhard, J. G. Teaching English as a Foreign or Second Language. A Self-Development and Methodology Guide (second edition). The University of Michigan Press, 2006.
8. Nuttall, C. (1996) Teaching Reading Skills in a foreign language (New Edition) Oxford, Heinemann.
9. Jacobson, E., Degener, S. and Purcell-Gates, V. Creating Authentic Materials and Activities for the Adult Literacy Classroom: A Handbook for Practitioners. USA: NCSALL, 2003.
10. Goodman, K (1988) The Reading Process in Carrell, P.L., Devine, J. & Eskey, D.E. (Editors) (1988) Interactive Approaches to Second Language Reading Cambridge, C.U.P. p 11-21.
11. Gilmore A. Authentic Materials and Authenticity in Foreign Language Learning // Language Teaching. 2007. Vol. 40 (2). p 97-118.
12. Murray, L. (2015). Using Authentic Materials in the Foreign Language Classrooms: Teacher Attitudes and Perceptions in Libyan Universities. International Journal of Learning & Development, 5(3), p 25-37.

KONTENTGA ASOSLANGAN HOLDA TIL O'QITISHNING DIDAKTIK JIHATLARI

Marifat ShUKUROVA
TDIU PhD doktorant

Abstrakt. Kontentga asoslangan holda chet tilini o'qitish metodikada dinamik yondashuv sifatida paydo bo'ldi, bu usul chet tilni o'qitishni turli akademik fanlarning mazmuni bilan birlashtiradi. Ushbu maqolada bu sohadagi asosiy olimlarning tadqiqot natijalari va tushunchalari, nazariy asoslari va uni amalga oshirishning samaradorligi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: kontent, chet tili, mazmun, integratsiya.

Kontent va tilni integratsiyalashgan holda o'qitish zamonaviy metodlardan hisoblanadi. Bu ingliz tili kabi chet tilini o'rganishda, ma'lum bir sohaga oid fan masalan, iqtisod, muhandislik, tibbiyot va boshqalar yetakchi negiz hisoblanadi. Konsepsiya keng ma'noda qo'llaniladi, chunki integratsiyaning ko'plab usullari mavjud.

Kontent asosida til o'rgatish tushunchasi nisbatan innovatsion bo'lsa-da, bu usul ta'limning o'zi kabi uzoq vaqtdalaran beri mavjud. Har bir kasb egasi chet tilini o'rganish